



BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY RELATED TO FIRE

Bekhzod Barkamalovich Iskhakov

Associate Professor, PhD in History
Namangan State Technical University
behzodisxakov2782886@gmail.com
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: fire cult, Zoroastrianism, ecological beliefs, hearth, bonfire, rituals, Fergana Valley, natural elements, purity, prosperity, folk beliefs, ethnoecology.

Received: 27.11.25

Accepted: 28.11.25

Published: 29.11.25

Abstract: The article explores the role of fire in the daily life of the Uzbeks of the Fergana Valley and its reflection in ancient religious beliefs such as Zoroastrianism, shamanism, and folk rituals. It discusses the perception of fire as a symbol of purity, prosperity, and protection, as well as the cultural significance of the hearth and bonfire. The study also highlights the role of natural elements fire, earth, water, and air in shaping traditional ecological culture.

FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARINING OLOV BILAN BOG'LIQ QARASHLARI

Bexzod Barkamalovich Isxakov

Dotsent, tarix fanlari falsafa doktori PhD
Namangan davlat texnika universiteti
behzodisxakov2782886@gmail.com
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: olov kul'ti, zardushtiylik, ekologik qarashlar, o'choq, gulxan, marosim, Farg'ona vodiysi, tabiat unsurlari, poklik, baraka, xalq e'tiqodi, etnoekologiya.

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining kundalik hayotida olovning tutgan o'rni va uning qadimiy diniy e'tiqodlar zardushtiylik, shomonlik hamda xalq marosimlaridagi aks-sadosi yoritilgan. Unda olovning poklik, baraka va himoya ramzi sifatidagi qadriyatlari, o'choq va gulxan bilan bog'liq urf-odatlarining mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, olov, yer, suv va havo unsurlarining xalq ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan.

ВОЗЗРЕНИЯ УЗБЕКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С ОГНЁМ

Бехзод Баркамалович Исхаков*Доцент, Доктор философии (PhD) по историческим наукам**Наманганского государственного технического университета*behzodisxakov2782886@gmail.com*Наманган, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: культ огня, зороастризм, экологические взгляды, очаг, костёр, обряды, Ферганская долина, элементы природы, чистота, благополучие, народные верования, этноэкология.

Аннотация: В статье раскрывается роль огня в повседневной жизни узбеков Ферганской долины и его отражение в древних религиозных верованиях зороастризме, шаманизме и народных обрядах. Рассматриваются представления об огне как символе чистоты, благополучия и защиты, а также значение очага и костра в традиционной культуре. Кроме того, анализируется место стихий огня, земли, воды и воздуха в формировании народной экологической культуры.

Kirish. Vodiy o'zbeklarining kundalik hayotida olov ham muhim rol' o'ynaydi. Dunyodagi boshqa dinlarida bo'lgani kabi zardushtiylikda ham muqaddas unsurlardan biri – olovga e'tiqod turli urf-odat va marosimlar orqali saqlanib qolgan. Taniqli ingliz olimasi Meri Boysning fikriga ko'ra, zardushtiylik nazdida, o'limni yovuz ruhlar yaratgani sababli u toza hisoblanmaydi va unga tegingan kishi nopok bo'lib qoladi. Shuning uchun ham muqaddas unsurlarni bulg'amaslik maqsadida marhumning uyida qishda 9, yozda esa 30 kun olov yoqilmaydi, kirlatmaslik uchun o'likni olovga tashlamaydilar[1].

Bunday ko'rinishlar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiy qipchoqlarida xonadon o'chog'i hech qachon o'chirilmagan. Axborotchilarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, xonadon o'chog'ida olovni kecha-kunduz o'chirmaslik ota-bobolardan qolgan odat bo'lib, ularning tasavvuricha, olovsiz o'choq misoli egasiz, kimsasiz uydur. O'chog'ida doimo olov yongan xonadondagina hamma vaqt qut-baraka bo'lgan. O'choqda yonayotgan olovni bulg'amaslik uchun unga nopok narsalar, hatto iflos o'tinni yoqish ham taqiqlanadi. Iflos o'tin yoqilishidan oldin odatda, quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan[2].

Asosiy qism. Murot O'rozning bergan ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi turkiylarda shunday bir udum mavjud bo'lgan: oilada katta aka uylansa, u ota o'chog'idan ayriladi. Unga atab yangi o'choq quriladi. Eski o'choq kenja o'g'ilga qoladi, uni "o'tni saqllovchi" deb ataydilar. Kelinlar esa o'zlari tushgan uyning o'chog'ida sariyog' eritib, uning yuqini yuzlariga suradilar, shu tariqa,

Tangri panohida bo'lishini tilaydilar[3]. Vodiya yangi kelin tushgan xonadonda to'y kunining ertasiga "yuz ochdi" marosimi o'tkaziladi. Shu kuni yangi kelinchak xonadon o'chog'i yoniga olib kelinib, yoshi ulug' momolar yordamida yonayotgan olovga uch marta yog' tomiziladi. Ushbu odat zamirida o'choqning bol'g'usi egasi yangi kelin ekanligi, uning qo'li doimo yog'li bo'lishi kabi ezgu niyatlar yotadi[4].

"O'tdan aylantirar" – kelin tushgan aravani kuyovning eshigi oldida yoqib qo'yilgan gulxandan uch marta aylantirish odati hisoblanadi. Andijon viloyatining Shahrixonda ushbu odat "olovdan aylantirish" deb atalgan[5].

Farg'onaliklar ham mintaqaning boshqa xalqlari kabi zardushtiylikda asosiy e'tiqod ramzi hisoblangan olovdan kishilarga ziyon-zahmat yetkazuvchi yovuz (yomon) ruhlar hamlasidan himoyalaniish vositasi sifatida keng qo'llaganlar. Xususan, ayol homiladorligi va bola tug'ilishi davrida hamda nikoh-to'y marosimlarida bajariladigan juda ko'plab rasm-rusumlarda bevosita olov bilan bir qator irimlar bajarilgan. Masalan, deyarli barcha etnik jamoalarning nikoh-to'y marosimlarida kelinning kuyov xonadoniga ko'chib o'tishida olov yordamida har ikki yoshning poklanishi va jodudan xalos bo'lish amallariga qat'iy rioya qilingan. Bu azaliy udumga ko'ra, kelin tushgan arava kelin yoki kuyov xonadoni yonida yoqilgan gulxandan bir necha bor (aksariyat hollarda uch marotaba) aylantirib o'tilgan[6].

Olovning yaratilishi haqida turkiylarda quyidagicha tasavvur mavjud bo'lgan: turkiy xalqlarning buyuk tangrisi Ulgen osmondan biri qora, biri oq tosh tushirib, kaftlarida ezgan xas-xashakni bir toshning ustiga qo'yadi, ikkinchisi bilan uradi, chiqqan uchqunlardan xas-xashak yonadi. Shunday qilib, odamlar undan olov yoqishni o'rganadilar.

Etnolog V. Vasilevning fikricha, yoqutlar olovdan chiqqan alanganing rangiga qarab turli harakatlar qiladilar. Ular olov yashil yonsa – qurg'oqchilik, qizil yonsa – urush, sariq yonsa – notinchlik, kasalliklar bo'lajagiga, qorayib yonsa – xoqonning o'lajagiga ishonardilar[7]. Bunda ayrim etnoslar tomonidan olovning turli xususiyatlariga mutanosib ravishda amalga oshirgan ba'zi xatti-harakatlarini ko'rish mumkin.

Bunga yaqin holatlar forslarda ham uchraydi. Eron mazdakiylari olovni muqaddas deb bilganlar. Har oqshom cho'g'ni kul bilan bostirib qo'yadilar, saharlab yana sarv daraxti shoxi bilan cho'g'ni yangidan o't oldiradilar, tutayotgan sarv shoxini xonalar bo'ylab aylantirib chiqadilar. Shunday qilinsa, xonada mavjud bo'lgan yovuz ruhlar uyni tark etar ekan[8].

Olov va kulga bo'lgan e'tiqodiy qarashlar Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy marosimlarida ham aks etgan. Misol uchun, Farg'ona viloyati Dang'ara, Uchko'prik va Buvayda tumanlarida bemorga kinna soluvchi ayollar kuldun unumli foydalanadilar. Bemorni davolashdan oldin kosaga kul solinib, orasiga tuz qo'shib "suqdan va xasdan o'zi asrasin" deb bemorning boshi

va tana qismiga tekkizib, uch marta aylantiriladi[9]. Bunda kul va tuz ta'sir kuchining o'zaro uyg'unlashganligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi diniy e'tiqodlarning deyarli barchasida olov bilan bog'liq tasavvurlar va qarashlar uchrab turadi. Bunday tasavvur va qarashlar zahirida olovga bo'lgan hurmat va e'tibor yotadi. Olov faqat yorug'lik va issiqlik manbai bo'lib qolmasdan, shu bilan birga uni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan saqlovchi vosita sifatida ham e'zozlanadi. Olov bilan bog'liq urf-odat va marosimlar xalqning ekologik diniy e'tiqodni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

F. Ratselning Markaziy Osiyodagi olovga e'tiqod bilan zardushtiylilik orasidagi aloqalar haqidagi taxminlari ham g'alizdir, zotan, ushbu o'xshashlik faqat tashqidir. Eronda biror-bir kimsa muqaddas olovga yaqinlashar ekan, nafasi bilan olovni ifloslantirmaslik uchun niqob kiygan, bu yerda esa olov bilan eng nopok narsa, ya'ni yomon ruhni cho'chitmoqda[10].

Demak, qadimgi diniy e'tiqodlarning deyarli barchasida olov bilan bog'liq tasavvurlar va qarashlar mavjud bo'lgan. Bunday tasavvur va qarashlar zahirida olovga bo'lgan hurmat yotadi. Olov yorug'lik va issiqlik manbaigina bo'lib qolmasdan, kishilarni yomon ko'z va insu jins, balo-qazolardan asrovchi vosita sifatida ham hanuzgacha e'zozlanadi.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining yer, suv, havo va olov kabi tabiat unsurlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabati, ularni e'zozlash bilan bog'liq ekologik qarashlarning tarixiy ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bunday etnoekologik qarashlarni etnografik jihatdan o'rganishni ekologik beqarorlikni keltirib chiqaruvchi qator omillar jiddiy ravishda talab qilmoqda. Shubhasiz, bu borada O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri – Farg'ona vodiysida ham qadimdan tabiat va tabiat unsurlarini asrash bilan bog'liq ekologik qadriyatlar tizimi shakllanganligini yaqqol ko'rish mumkin.

Xalq afsonalarida butun borliqda dastlab faqatgina suv bo'lgan, olov ham, zamin ham, odamlar ham aynan suvdan tarqalgan, deb talqin qilinadi. Shuning uchun qiyomat to'foni borliqning asli, ya'ni ilk holatiga qaytish g'oyasining ifodasidir. Mazkur tushunchaning turli xalqlar qarashlaridagi ifodasi butun dunyoga mashhur va manzur bo'lgan ingliz antropologi J. Frezerning "Tavrotda folklor" asarida atroflicha sharhlab berilgan[11].

Xulosa. Ibtidoiy odam hayotning to'rt asosiy omili – yer, suv, toza havo va quyosh madadisiz o'z tirikchiligining davomiyligini ta'minlay olmagan. Shuning uchun ham sovuq iqlimli mintaqalar aholisi ayniqsa quyosh madadiga muhtoj, quyoshsiz hayotni tasavvur eta olmaydilar. Havo harorati yuqori bo'lgan o'lkalarda ko'proq quyosh jazirasidan asrovchi omil hisoblangan suv va havo ilohiylashtiriladi, ularga muqaddas iloh sifatida e'tiqod qilinadi. Ona zamin esa quyosh va suv uyg'unligida inson faoliyatini asosiy omili sifatida muqaddaslashtirilgan. Ular uyg'unligidagi borliq, yerdagi hayot eng ulug' zot – insonga xizmat qiladi.

Odatda, ilk diniy tasavvurlar va tabiat kul'ti to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asarida ham uchratish mumkin. Uning yozishicha, qadimgi massaget qabilalari yagona quyosh tangrisiga e'tiqod qilganlar va unga bag'ishlab otlarni qurbonlik qilganlar[12].

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Farg'ona vodiysida chorvachilik va dehqonchilik madaniyatining shakllanish natijasida suv, yer, havo hamda olov muqaddas unsurlar deb qaralgan. Chunki, tabiatga muhabbat asosida xalq odatlari, marosimlar, bayramlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va atrof-muhitni asrashga doir lokal madaniyat shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boyse M. History of zoroastrianism. Vol. 2. – Leiden, 1982, – P. 52.
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий – Б. 70.
3. Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – Тошкент, 1992. – № 7. – Б. 9.
4. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Kaklikqo'rg'on qishlog'i. 2018-yil.
5. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon tumani Do'lon qishlog'i. 2010-yil.
6. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро ... – Б. 165–166.
7. Васильев В. Шаманский костюм и бубенов у якутов. – СПб., 1910. – С. 17.
8. Boyse M. History of zoroastrianism. Vol 2. – Leiden, 1982. – P. 53.
9. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2020-yil.
10. Гумилев Л. Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 96.
11. Фольклор в Ветхом завете. – Москва: Политиздат, 1989. – С. 541.
12. Геродот. История в девяти книгах. – Ленинград: Наука, 1972. – 79 с.